

KARTOSHKA VA UNING OZIQ OVQATDAGI AHAMIYATI

Kamolova Sevaraxon Ahmadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistiri

kamolovaafrozaxon@gmail.com

Annotatsiya: *Kartoshka dunyodagi eng ko'p iste'mol qilinadigan mahsulotlardan biri bo'lib, vitamin va minerallar bilan boyitilgan. Uning tarkibida kaliy, magniy, temir, C va B guruh vitaminlari mavjud bo'lib, ular yurak-qon tomir tizimini qo'llab-quvvatlash, immunitetni mustahkamlash va ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Maqolada kartoshkaning qaysi shaklda iste'mol qilinishi foydaliroq ekani va uning oziq-ovqat sanoatida tutgan o'rni ham yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Kartoshka, kartoshkaning tarkibi, oziq-ovqat, genafond, nav, elita urug', aholi tomorqa.*

Аннотация: *Картофель является одним из самых употребляемых продуктов в мире и богат витаминами и минералами. Он содержит калий, магний, железо, витамины группы С и В, которые поддерживают сердечно-сосудистую систему, укрепляют иммунитет и улучшают пищеварение. В статье также рассматриваются наиболее полезные способы употребления картофеля и его значение в пищевой промышленности.*

Ключевые слова: *Картофель, состав картофеля, продукты питания, генофонд, сорт, элитные семена, приусадебный участок населения.*

Annotation: *Potatoes are one of the most consumed foods worldwide and are rich in vitamins and minerals. They contain potassium, magnesium, iron, and vitamins C and B, which support the cardiovascular system, strengthen immunity, and improve digestion. The article also explores the healthiest ways to consume potatoes and their significance in the food industry.*

Keywords: *Potato, composition of potato, food, gene pool, variety, elite seeds, household plot.*

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizda kartoshkaga bo'lgan talab qariyb 4 million tonnani tashkil etadi. Shuning 80 foizdan ziyodi yurtimizda yetishtirilib, qolgan qismi import hisobidan to'ldirilmoqda.

Sababi – sohada bir qancha muammolar bor. Masalan, bugungi kunda 253 ming gektarda kartoshka ekilayotgan bo'lsa, o'rtacha hosildorlik 163 sentnerni tashkil etmoqda. Chet ellardagiga qaraganda bu juda past ko'rsatkich.

Yana bir katta muammo urug'chilik bilan bog'liq. Aholi va dehqonchilik xo'jaliklari elita va R1 urug'lik o'rniga import qilingan yoki mahalliy sifatsiz kartoshka ekmoqda.

Yuqori hosilli urug'lik kartoshka yetishtirish uchun ekin yerlari va issiqxonalar, ularni saqlash uchun omborxonalar yetarli emas. Hosildorlikning kamayishiga sabab bo'luvchi virus va bakteriyali kasalliklarni tekshiradigan laboratoriyalar yo'q.

Yig'ilishda ushbu dolzarb masalalarni hal etish, kartoshkachilik va uning urug'chiligini rivojlantirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Bugungi kunda milliy genofondga 250 xil kartoshka navi mavjud bo'lib, 4 ta korxona va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan 27 ta navdan milliy urug' yaratish bo'yicha ishlar boshlangan.

Ulardan biri Samarqanddagi O'zbekiston – Koreya qo'shma korxonasidir. Uning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida birinchi bosqichda Bulung'ur, Toyloq va Samarqand tumanlaridan 500 gektar, ikkinchi bosqichda Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin, Qashqadaryo viloyatining Kitob va Shahrisabz tumanlaridan 2 ming gektar yer ajratish mo'ljallanmoqda.

Urug'chilikni rivojlantirish uchun Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida 4 gektarlik, Samarqanddagi "Green Korea agro Invest" korxonasida 1 gektarlik issiqxona va sovutgichli omborxonalar qurish rejalashtirilgan. Bu loyihalar Jahon banki mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi va "in vitro" usulida kartoshka urug'ini yetishtirishning to'liq sikli yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filialida "ilm – ta'lim – ishlab chiqarish" tamoyili bo'yicha Kartoshka urug'chiligi markazi tashkil etiladi. Kartoshkaning yashirin virus kasalliklari va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha 4 million dollarlik laboratoriya ishga tushiriladi.

Shu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 2025-yildan kartoshka urug'chiligiga bo'lgan ichki talab to'liq ta'minlanishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, urug'lik kartoshka yetishtirish hajmini oshirish va sifatini kafolatlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Qishloq xo'jaligi vazirligiga 500 tonna elita kartoshka urug'larini 1 ming 700 ta aholi tomorqalariga bepul tarqatish, kartoshka yetishtiruvchilarga imtiyozli mablag'lar ajratish vazifasi qo'yildi.

Kartoshka bugungi kunda dunyoning deyarli barcha mintaqalarida keng yetishtiriladigan va aholining kundalik ovqatida asosiy o'rin egallagan qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. Uning tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan ko'plab biologik faol modda va elementlar mavjud. Xususan, kartoshka C, B1, B6, PP vitaminlariga, kaliy, fosfor, magniy, temir singari minerallarga boy bo'lib, organizmning umumiy immunitetini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kaliy miqdorining yuqoriligi yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlashda foydalidir.

Kartoshka asosan uglevodlar (kraxmal) manbai bo'lib, energiya yetkazib beruvchi asosiy oziq-ovqatlardan biridir. Qaynatilgan yoki pishirilgan holida u dietik taom sifatida ham tavsiya etiladi. Oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi, yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kartoshka nafaqat keng iste'mol qilinadigan mahsulot, balki sog'lom ovqatlanish madaniyatida ham muhim o'ringa ega.

Bundan tashqari, kartoshka oziq-ovqat sanoatida ham keng qo'llaniladi. Masalan, kartoshkadan kraxmal, glukoza, spirtiylar, suyuqliklar, chips, pyure va boshqa ko'plab yarim tayyor mahsulotlar tayyorlanadi. Ushbu mahsulotlar esa ichki bozorni ta'minlash bilan birga, eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Kartoshkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, u ko'plab oilalar uchun barqaror daromad manbaiga aylangan. Aholi tomorqalarida yetishtiriladigan kartoshka nafaqat oila ehtiyojini qondiradi, balki ortiqchasini bozorga chiqarish orqali qo'shimcha daromad ham keltiradi. Shu jihatdan, kartoshkachilik kichik tadbirkorlik va dehqonchilikni rivojlantirishda muhim vositadir.

Shuningdek, kartoshkaning hosildor va kasalliklarga chidamli navlarini yaratish, elita urug'chilikni rivojlantirish, genafondni boyitish orqali uning sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash mumkin. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, kartoshka – nafaqat asosiy oziq-ovqat mahsuloti, balki iqtisodiy barqarorlik, sog'lom ovqatlanish va aholi farovonligini oshirishning strategik omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Campos H., Ortiz O. (2020). The Potato Crop: Its Agricultural, Nutritional and Social Contribution to Humankind. Springer.
2. Jo'rayev S. T., Xudarganov K. O. (2022). Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi va urug'shunosligi. Lesson Press, Toshkent.
3. Murtazayev O., Axrorov F. (2020). Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiyoti.
4. Shaumarov X. B., Islamov S. Ya., Xolmirzayev D. K., Safarov A. A. (2021). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.
5. Shaymardanov B. P., Xudayarov B. M., Astanaqulov K. D., Shavazov Q. O. (2020). Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari.
6. Soatov U. R. (2024). Qishloq xo'jaligi hayvonlarni urchitish.
7. Soliyev I. T. (2023). O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish yo'llari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
8. Struik P. C. (2023). Impact of Hybrid Potato: The Future of Hybrid Potato from a Systems Perspective. Wageningen Academic Publishers.
9. Çalışkan M. E., Bakhsh A., Jabran K. (2022). Potato Production Worldwide.